

RAQAMLI TEKNOLOGIYA YUTUQLARINI MILLIY IQTISODIYOTGA JORIY QILISHNING MOLIYAVIY JIHATLARI

Yangiboyev Berdiyar Yangiboyevich

Iqtisodiyot va pedagogika Universiteti NTM professori, iqtisodiyot fanlari doktori

yangiboyevberdiyar@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyotning mohiyati, unga xos bo'lgan xususiyatlar, uning yutuqlarini milliy iqtisodiyotga keng joriy qilishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, dunyoning ayrim davatlari, jumladan O'zbekiston oldida bu borada turgan dolzARB masalalar bilan bog'liq bo'lgan muammolar va ularning yechimini ko'rsatib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, milliy iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, electron biznes, mobil tarmoq aloqalari, internet, elektron savdo, elektron hukumat

Kirish

Fan, texnika va texnologiyalar yo'naliishlarida amalga oshirilayotgan yangiliklar, ayniqsa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida erishilgan yutuqlar jamiyatimiz taraqqiyotini va ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning barcha jabhalarini misli ko'rilmagan darajada miqdoriy va sifatiy jihatdan o'zgartirib yubormoqda.

Hozirgi zamon raqamli texnologiyalari insonlarning umumiyl manfaatlari uchun xizmat qilishi va barcha jabhalarni keng miqiyosda qamrab olishi - hozirgi dunyoning talabiga aylanib, ilmiy adabiyotlarda axborot texnologiyalari, hozirga kelib esa raqamli texnologiyalar (raqamli iqtisodiyot) nomini oldi.

Bunday iqtisodiyot ko'plab yangi bilim va ko'nikmalarga, ijtimoiy himoya qilishning tubdan yangi yo'llariga, mehnat va dam olish o'rtasidagi sifat jihatidan yangi munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Bu muammolar bilan sho'g'illanmagan birorta fan sohasi qolmadi. Raqamli iqtisodiyot insonlarning umumiyl manfaatlari uchun xizmat qiladigan va uning barcha jabhalarini keng miqiyosda qamrab oladigan o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday o'zgarishlar butun insoniyat jamiyatining barqaror rivojlanishi maqsadlariga erishishida muhim hissa bo'lib qo'shilishi va shu bilan birga ulkan imkoniyatlarni yaratib berishi muqarrar, albatta.

Dunyodagi barcha ilg'or kuchlarning sa'y-harakatlari samarasini o'laroq aholining raqamli texnologiyalar olamiga kirib borishi hamda uning natijalaridan o'z mamlakatlari ravnaqi yo'lida foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Zero, bugungi taraqqiyotimizni va albatta, insoniyat hayotining serqirra jihatlarini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mazkur maqolada hozirgi zamon raqamli texnologiyalarni mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

tarmoqlariga keng joriy qilish bilan bog'liq masalalar qarab chiqiladi va ularning yechimlari to'g'risida fikr-mulohazalar qilinadi.

Tadqiqot Metodologiyasi

Dunyo miqiyosida raqamli texnologiyalarning yangi avlodni paydo bo'lib, uning rivojlanish ko'lami tufayli fanda "simsiz texnologiyalar", "mobil texnologiyalar", "internet", "sun'iy intellekt", "robototexnika" kabi turli terminlar paydo bo'ldi.

Aqlii mexanizmlarni ishlab chiqarishga bo'lgan shart - sharoitlar ham o'zgarmoqda. Aqlii mexanizmlar deganda odamlar va texnologik tizimlarga ulangan va muvofiqlashtirilgan aqlii ekotizimlarda ochiq o'zaro ta'sir qiladigan raqamli muhit tushuniladi. Bunga "aqlii shaharlar", "aqlii uylar", "aqlii gaz, svet, suvni o'chagichlar", "raqamlashgan aqlii ish o'rnlari" kabilalar misol bo'la oladi. Bularning barchasi raqamli iqtisodiyotning namoyon bo'lish shaklidir.

Raqamli iqtisodiyot tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohalari, elektron tijorat bilangina cheklanib qolmasdan, milliy iqtisodiyotning sog'liqni saqlash, fan va ta'lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet-banking kabi tarmoqlariga, huquqni muhofaza qilish sohalariga jadal kirib bormoqda va ularning har birida yuqori samara berishi ta'minlanmoqda.

Raqamlashtirishning ta'rifi, holati va uni yanada rivojlantirish masalalari xorijda va mamlakatimizda nashr qilingan bir qator yozma manbalarda va ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ularda jumladan, raqamlashtirishga raqamlashgan axborot texnologiyalari yoki iqtisodiy agentlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir usullaridagi o'zgarishlar (1), boshqasida raqamli texnologiyalar va tegishli mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, tarqatish va ulardan foydalanish bo'yicha faoliyat (2) degan ta'riflar berilgan.

Ko'pincha raqamlashtirishni uning mamlakat milliy iqtisodiyoti va ijtimoiy faoliyatning tarmog'i, ularga ta'siri nuqtai - nazaridan baho beruvchilar ham bor, jumladan, jahon banki ma'lumotlarida, "raqamlashtirish - bu internet, shuningdek, mobil va sensorli tarmoqlar kabi platformalar tomonidan qo'llab - quvvatlanadigan iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning global tarmog'idir" (3) degan ta'rif berilgan.

Raqamlashtirishning "fan, texnologiya va innovatsiyalar bilan bog'liq rivojlanishini inobatga olgan holda, uni - raqamli texnologiyalar, tegishli mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, tarqatish va ulardan foydalanish bo'yicha faoliyat yoki ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash, qidirish, uzatish va elektron shaklda taqdim etish texnologiyalaridir", degan ta'rif ham bor (4).

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotganligi va uni taraqqiy toptirishning dolzarbli muammolari bo'yicha Gulyamov S.S., Abdullayev O.M., Ayupov R.H., Baltabayeva G.R., Ergashyev R.X., Hamroyeva S.N. kabi mahalliy olimlarimiz ham ilmiy izlanishlar olib borganlar, jumladan, Gulyamov C.C. va boshqalar "Raqamli" iqtisodiyot bu - gibrid dunyo sharoitlarida mavjud bo'lgan iqtisodiyotdir" (5), R.X.Ergashyev va S.N.Hamroyevalar "Raqamli" iqtisodiyot bu - axborot, jumladan, personal axborotdan foydalanish hisobiga barcha qatnashchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish, uning o'ziga xos xususiyati bo'lgan iqtisodiyotdir (6), degan ta'riflar berishgan.

Raqamli texnologiyalarga berilgan boshqa ta'riflarni ham keltirish mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, raqamli iqtisodiyotga - milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalariga raqamli texnologiyalar yutuqlarini keng joriy qilish va ulardan faol foydalanish, deb ta'rif berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi, deb hisoblaymizi.

Tahlil va Natijalar

Nashr qilingan ayrim manbalarda iqtisodiy rivojlantirishda dunyoda yetakchilik qilib kelayotgan davlatlardan biri hisoblanmish Buyuk Britaniyada raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagagi ulushi 12 foizni tashkil qilgani holda, mamlakatimizda bu ko'rsatkich 2019 yilda 2 foizni tashkil qilgan, xolos. 2024 yilga kelib, bu ko'rsatkichni 3 martaga oshirish kuzda tutilgan (7).

Raqamli texnologiyalarni joriy qilish katta moliyaviy resurslarni talab qilishi tabiiy hol, albatta. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020- yilning 24 - yanvari kuni Oliy Majlisga Murojaatida

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

“Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz, ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish - kelgusi besh yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi” deb ta‘kidlab o‘tdi (8).

“ERGO Research 8Advisory” konsalting xizmati tahlilchilarining fikriga ko‘ra, mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llashdagi asosiy muammolar telekommunikatsiya infratuzilmasi, aloqa sifatining talab darajasida emasligi va davlat budgetidan hozircha yetarli mablag‘larning ajratilmayotganligidir.

Raqamli iqtisodiyotga jadal o‘tishga to‘sinqilik qilayotgan bir qator muammolar hanuzgacha saqlanib qolimmoqda. Xususan, davlat axborot tizimlarini rivojlantirishning yagona tamoyillari hali ishlab chiqilmagan, ushbu sohadagi tadbirlar boshqa axborot tizimlari bilan uzviy bog‘lanmagan holda amalga oshirilib kelinmoqda.

O‘zbekistonning iqtisodiy erkinlik indeksi bo‘yicha 140 - o‘rinni band etib turganligi ham raqamli iqtisodiyotni joriy etishda qilinishi kerak bo‘lgan ishlarning hali ko‘pligini anglatadi. Raqamli savodxonlikni ta‘minlaydigan va global tendensiyalarga javob beradigan o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ham amalga oshirilayotgan ishlarni talab darajasida, deb bo‘lmaydi.

Uzoq muddat davomida budget tashkilotlaridagi texnik xodimlarning axborot texnologiyalari sohasidagi mutaxassislariga to‘langan maoshlarning kamligi ham bu boradagi muammolardan biri bo‘lib qolgan edi. Natijada malakali mutaxassislar bu lavozimga ko‘ra xalqaro tashkilotlar, qo‘shma korxonalar, chet ellik buyurtmachilar uchun ishlashni ma’qul ko‘rishganlar.

Mamlakatimiz aholisi 2017 - yilda iste’mol tovarlari xaridining 34 foiz hisobini raqamli to‘lov shaklida amalga oshirgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich B.Britaniyada 96 foizni tashkil qiladi. Shuning uchun ham bu ko‘rsatkichni hozirgi zamon nuqtai - nazaridan yetarli deb hisoblab bo‘lmaydi.

Bundan o‘n yil oldin O‘zbekiston internet tezligi bo‘yicha MDH mamlakatlaridagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki barobar past bo‘lib, bu ko‘rsatkich bo‘yicha mamlakatimiz dunyo reytingida 129 - o‘rinni egallab turgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib mobil internet tezligi bo‘yicha dunyoda 91 - o‘ringa ko‘tarildi. Bu O‘zbekiston 2023 yilga kelib 38 pog‘onaga yuqoriladi deganidir (9).

Shu bilan birga, O‘zbekistonni IT-xabga aylantirish uchun internet tezligini oshirish bo‘yicha hali juda ko‘p ish qilishishi kerakligini ta‘kidlashni joiz, deb hisoblaymiz.

Mamlakatimizda terminal orqali to‘lovlar miqdorini oshirib borishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda, undan faqat oqilonqa foydalanish kerak bo‘ladi. Shu boisdan ham mamlakatimiz raqamli texnologiyalar natijalaridan tobora unumli foydalanish yo‘lini tanladi. Bu tanlangan yo‘l milliy iqtisodiyotimiz taraqqiyoti uchun yangidan-yangi imkoniyatlar va yo‘nalishlar eshigini ochib berishi, tabiiy.

Hozirga kelib, raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sanoat, qishloq xo‘jaligidagi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 28 apreldagi PQ-4699-sonli qarori talablaridan kelib chiqqan holda 2025 yilga kelib, raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 barobarga ko‘paytirish nazarda tutilgan (10), chunki raqamli texnologiyalarni iqtisodiyot va ijtimoiy sohaga jadal joriy etishni ta‘minlash milliy rivojlanishning maqsadlaridan biridir.

2020 yilning 5 oktyabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079 - sonli Farmonida elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha xududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta‘minlashni o‘z ichiga olgan 220 dan ortiq ustuvor loyihalarini amalga oshirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, Toshkent, Nukus, Buxoro, Namangan, Samarqand, Guliston, Urganch va kabi shaharlarda zamonaviy infratuzilmaga ega bo‘lgan IT parklarining barpo etilishi (11) bu borada bajarilishi yuzasidan qo‘yilgan qadamlarning debochasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yilning 28 aprelida “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga ham milliy iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, IT parklarni tashkil etish, yangi loyihalarning moliyavisi manbalarini ta‘minlash uchun 1,3

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

trillion so‘mlik 104 ta, iqtisodiyotning real sektorida 5,3 trillion so‘mlik 87 ta, telekommunikatsiyalar sohasida 15,1 trillion so‘mlik 35 ta, agrar sohada 24 ta, alohida IT parklar bo‘yicha 18 ta loyihalarni amalga oshirish belgilab qo‘yilgan (12).

Raqamli texnologiyalar sohasiga investitsiyalarni kiritish natijasida tayanch aloqa stansiyalarning zichligini oshirish, internet, mobil xizmatlarining yaxshi ishlashini ta’minlash natijasida iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdan iborat vazifalar kelib chiqadi.

Xulosa va Takliflar

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotiga raqamli texnologiyalarni joriy qilishdagi holat va uni yanada jadallashtirish yuzasidan quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

- bugun jadallik bilan kechayotgan raqamlashtirish jarayonlari tubdan yangi iqtisodiyotni vujudga keltirmoqda. Joriy qilinishi kun tartibiga kiritilgan bu iqtisodiyot tadbirkorlik va ijtimoiy sohalarda harajatlarni minimal miqdorda kamaytirib, maksimal foyda olishda katta imkoniyatlar yaratib berishi isbot talab qilmaydigan tabiiy holatga aylandi;
- raqamli texnologiyalar - iqtisodiy taraqqiyotning asosiy manbai hisoblanib, raqobat, sarmoya va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi, bu esa iste’molchilar tanlovini kengaytirishga, yangi ish o‘rinlarini yaratishga, pirovard natijada davlat taraqqiyoti va xalq farovonligini tubdan ijobiy tomonlarga o‘zgartirishga olib keladi;

O‘zbekiston Prezidenti va hukumatining raqamli texnologiyalarni milliy iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy qilish yuzasidan olib borayotgan sa’i-harakatlari bir qator yangi samarali yo‘nalishlarning yaratilishiga zamin tayyorlamoqda;

- raqamli iqtisodiyotga o‘tish dunyoning barcha mamlakatlari uchun birinchi vazifa bo‘lib turgan bir paytda O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining barcha sohalarini raqamlashtirish jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv, dunyo bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, samaradorlikka erishish va fuqarolarimizga yetarli qo‘layliklar tug‘diradi;
- raqamlashtirish natijasida to‘plangan axborotlar asosida ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish parametrlarini bashoratlashga va tegishli qarorlar qabul qilishga katta imkoniyatlar yaratilmoqda;
- raqamli texnologiyalar asta - sekinlik bilan inson mehnatining o‘rnini egallab borishi bilan bir qatorda pirovard natjalarning ijobiy tomonlarga siljib borishini ta’minlaydi, bu esa raqamli texnologiyalarning namoyon bo‘layotganligini anglatadi;
- milliy iqtisodiyot tarmoqlarida va sohalarida tubdan yangi o‘zgarishlarning ro‘y berishi, insonlar mehnatining yengillashtirilishi, ishlab chiqarish samaradorligining keskin oshib borishi zamonaviy raqamli texnologiyalarning pirovard natjasini anglatadi;
- mamlakatimizda raqamlashtirish sohasida xorij tajribasini o‘rganish asosida istiqbolda ularni yanada rivoj toptirishning asosiy parametrlarini ishlab chiqish uchun keng imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Evropean Commision, 2014. B.4.

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

2. The Economist, 2014. B.17.
3. Juhon banki ma'lumotlari, 2016. B.5.
4. G.I.Abdraxmonova, K.O. Vishnevskiy va boshqalar. Rossiya Milliy tadqiqot universiteti oliy iqtisod maktabi, 2020. B.6.
5. Gulyamov S.S. va boshqalar.Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari.-Toshkent, 2019, - B.22.
6. Ergashyev R.X., Hamroyeva S.N.Raqamli iqtisodiyot.- Qarshi, 2021, -B.11.
7. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2020 yil 28 yanvar, 2-soni.
8. 8:// htth: //o'z/ politics/o'zbekiston-respublikasi - president - shovkat - mirziyoev -oliy-25-01-2020].
9. Dunyo Uz [https://t.me/daryouz_dunyo_yangilillar_uzbek].
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yilning 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079 - sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yilning 28 apreliadi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora - tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.